

## ASOSIY STAVKA BO'YICHA QAROR QABUL QILINISHIGA ASOS BO'LGAN OMILLAR

2026-yil 29-iyul

Bugungi Markaziy bank boshqaruvi yig'ilishida joriy va kutilayotgan ichki hamda tashqi iqtisodiy sharoitlar, shuningdek, **yangilangan makroiqtisodiy prognozlar** atroflicha muhokama qilindi.

Muhokamalardan kelib chiqib, Markaziy bank boshqaruvi tomonidan **asosiy stavkani yillik 14 foiz darajasida saqlab qolish** to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ushbu qaror inflyatsiyani o'rta muddatda maqsadli darajaga barqaror pasaytirish, inflyatsion kutilmalarni jilovlash va iqtisodiyotdagi yuqori talab sharoitida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash uchun zarur bo'lgan pul-kredit sharoitlarining qat'iyligini ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur qaror quyidagilar bilan izohlanadi.

***Birinchidan, inflyatsiyaning pasayish dinamikasi kutilganidan sekinroq kechmoqda. Iyun oyida tartibga solinadigan narxlar o'zgarishi ta'sirida umumiy inflyatsiya vaqtincha tezlashdi. Inflyatsion kutilmalar biroz pasaygan bo'lsa-da, yuqori darajada saqlanmoqda.***

2026-yil iyun oyida **umumiy inflyatsiya** darajasi avvalgi oyga nisbatan 0,9 foiz bandga oshib, **yillik 6,4 foizni** tashkil etdi.

Bunda o'sish, asosan, energiya mahsulotlari (*xususan, elektr energiyasi, tabiiy gaz, ko'mir va avtomobil uchun metan*) narxlari oshishi hisobiga shakllandi.

Iste'mol savatining asosiy komponentlari kesimida iyun oyida **oziq-ovqat tovarlari yillik inflyatsiyasi** o'tgan oyga nisbatan 0,4 foiz bandga pasayib, **6,3 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **nooziq-ovqat tovarlari inflyatsiyasi 5,9 foizgacha** hamda **xizmatlar inflyatsiyasi 7,1 foizgacha** tezlashdi.

**Bazaviy inflyatsiya** va uning asosiy komponentlari iyun oyida o'zgarishsiz qoldi va bazaviy inflyatsiya yillik **5,7 foizni** tashkil etdi. Shu bilan birga, oziq-ovqatlar bazaviy inflyatsiyasi boshqa tarkibiy guruhlariga nisbatan yuqoriroq shakllandi.

Umuman olganda, iyun oyida narxi yillik 5 foizdan yuqori oshgan tovar va xizmatlar ulushi biroz ko'paydi.

Shu bilan birga, qayd etish lozimki, mahsulotlar taklifini oshirish orqali ularning narxlarini barqarorlashtirish bo'yicha Hukumat bilan birgalikda bir qator tegishli amaliy choralar ko'rilmogda.

**Iyun oyida aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari** biroz pasayib, mos ravishda **10,1 foiz** va **9,9 foizni** tashkil etdi. Moliya ekspertlarining inflyatsion kutilmalari yaxshilanib, **7,1 foizgacha** pasaydi. Biroq kutilmalar hali ham inflyatsiyaning target darajasidan yuqori bo'lib, ularni barqaror pasaytirish pul-kredit sharoitlarining yetarli darajada qat'iyligini saqlashni taqozo etmogda.

Yangilangan makroiqtisodiy prognozlarga ko'ra, 2026-yil yakunida **umumiy inflyatsiya 6,5 foiz** atrofida shakllanishi kutilmogda.

Tarkibiy islohotlar va tartibga solinadigan narxlarni bozor tamoyillariga moslashtirish davrida ayrim nisbiy narxlarning o'zgarishi tabiiy jarayon hisoblanadi.

Ushbu sharoitda pul-kredit siyosati choralari mazkur o'zgarishlarni birlamchi ta'sirini bartaraf etishga emas, balki ularning

ikkilamchi ta'sirlarini bazaviy inflyatsiya va kutilmalarda mustahkamlanib qolmasligini ta'minlashga qaratiladi.

*Ikkinchidan, iqtisodiyotda yuqori iste'mol va investitsion faollik saqlanmoqda. Bu iqtisodiyot potensialining kengayishiga ijobiy xizmat qilsa-da, qisqa muddatli istiqbolda yalpi talabni yuqori darajada shakllanishini qo'llab-quvvatlamoda.*

*Ayni paytda, kreditlash sur'atlarining muvozanatlashuvi pul-kredit sharoitlari transmissiyasining ta'sirlarini namoyon etmoqda.*

2026-yilning birinchi yarmida iqtisodiy o'sish **8,5 foizni** tashkil etdi. Iqtisodiy o'sish keng qamrovli bo'lib, asosiy tarmoqlarda yuqori faollik saqlanmoqda.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy o'sishning tezlashishiga:

- **xizmatlar** sohasining **17 foizga o'sishi**;
- **sanoatning 8 foizga o'sishi**;
- **qurilishning** deyarli **14 foizga o'sishi**;
- **qishloq xo'jaligining 4,7 foizga o'sishi hissa qo'shdi.**

Birinchi yarim yillikda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar **17,5 foizga** o'sdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi **33 foizga** o'sib, **12,4 mlrd** dollarga yetdi.

Investitsiyalarning yuqori sur'atlari iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlamoda va yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilishi orqali o'rta muddatli istiqbolda tovar va xizmatlar taklifini kengaytirish uchun zamin yaratmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror yuqori darajada saqlab qolish jalb qilinayotgan investitsiyalarning samaradorligi va mehnat unumdorligi oshishiga bog'liq bo'ladi.

Yuqori iqtisodiy faollik fonida yalpi talab ham yuqori saqlanmoqda. Bu investitsiyalar, byudjet xarajatlari, turizm, xizmatlar eksporti va pul o'tkazmalari dinamikasida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, yil boshidan buyon qat'iy pul-kredit sharoitlari va makroprudensial choralar ta'sirida kreditlash o'sishi muvozanatli shakllandi.

2026-yilning birinchi yarmida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5 foizga** oshib, **191 trln** so'mni tashkil etdi.

Milliy valyutada ajratilgan kreditlar hajmi **2,2 foizga** qisqargan bo'lib, asosiy pasayish aholiga ajratilgan mikroqarzlarda kuzatildi. Bu makroprudensial choralar ta'sirining ayrim kredit segmentlarida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Natijada iqtisodiyotdagi jami **kredit qo'yilmalari qoldig'i** yillik **12,9 foizga** oshib, 1-iyul holatiga **699 trln** so'mga yetdi. Bunda **milliy valyutadagi** kreditlar qoldig'i **16,9 foizga** oshdi.

2026-yilning birinchi yarmida **oltinsiz eksport 31,7 foizga** o'sdi. **Import** hajmi yil boshidan **21 foizga** oshdi. Import oshishiga yakuniy iste'mol va investitsion tovarlar importi asosiy hissa qo'shdi.

Iste'mol faolligini qo'llab-quvvatlayotgan muhim omillardan biri **turizm sohasi** bo'lib qolmoqda. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar soni **6,7 mln kishiga** yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25 foizga** yuqori bo'ldi.

Joriy fiskal sharoitlarda ijobiy tendensiyalar shakllanmoqda. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, birinchi yarim yillikda **davlat byudjeti 1,8 trln so'm profitsit** bilan ijro etildi.

Shu bilan birga, daromadlar oshishi hisobiga fiskal xarajatlar yil boshidagi rejaga nisbatan sezilarli darajada yuqoriroq bo'lishi kutilmoqda. 2026-yil yakunida umumiy fiskal taqchillikning YAIMga nisbati **3 foizdan oshmasligi** rejalashtirilgan.

Iqtisodiy faollik yuqori bo'lgan sharoitda xarajatlarning qo'shimcha kengayishi yalpi talabni qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy bank baholashlariga ko'ra, yuqori iqtisodiy faollik, fiskal rag'batlantirishlar, pul o'tkazmalari va investitsiyalar ta'sirida ishlab chiqarish tafovuti ijobiy hududda shakllanmoqda.

Bu kelgusi choraklarda talab tomonidan ma'lum bir inflyatsion bosim saqlanishini anglatadi.

Ayni paytda, investitsiyalar hisobiga potensial ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi ushbu bosimni o'rta muddatda yumshatishi kutilmoqda.

**Yuqoridagi omillarni inobatga olib, 2026-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot o'sishi bo'yicha prognoz 7,5-8 foizgacha** oshirildi (*avvalgi prognoz 7–7,5 foiz*).

*Uchinchidan, tashqi iqtisodiy sharoitlar avvalgi davrga nisbatan biroz yomonlashdi. Bu asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy faollik dinamikasining mo'tadillashuvi, jahon xomashyo bozorlaridagi narxlarning yuqori tebranuvchanligi hamda geosiyosiy noaniqliklarning yuqori darajada saqlanib qolayotganida namoyon bo'lmoqda.*

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinliklar va ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar xomashyo bozorlarida tebranuvchanlikni saqlab turibdi. Savdo hamkorlardagi yonilg'i taklifi bilan bog'liq uzilishlar import narxlari orqali ichki narxlarga bosim o'tkazishi mumkin.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining yangilangan prognozlariga ko'ra global inflyatsiya o'sish tendensiyasiga qaytgan. Xususan, 2026-yil uchun global inflyatsiya prognozi **4,4 foizdan 4,7 foizga** yuqoriga qayta ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalariga investitsiyalar davom etishi global iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlamoda. **Jahon iqtisodiyoti** joriy yilda **3 foizga** o'sishi kutilmoqda.

Real samarali almashuv kursi iyun oyida yil boshiga nisbatan **2,4 foizga qadrsizlandi**. Ushbu dinamika asosan savdo hamkorlar valyutalarining mustahkamlanishi hisobiga shakllandi.

Savdo hamkorlardagi almashuv kurslari joriy tendensiyalari, faol xorijiy investitsiyalar oqimi davom etishi hamda jahon xomashyo bozorlardagi nisbatan qulay narx konjunkturasi hisobiga ichki valyuta bozorida keskin bosimlar kutilmayapti.

*To'rtinchidan, pul-kredit sharoitlari umuman olganda qat'iyligicha qolmoqda: ijobiy real foiz stavkalari jamg'arishni rag'batlantirib, milliy valyutada kreditlash o'sishining mo'tadillashuviga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bank tizimidagi yuqori likvidlik profitsiti pul bozori sharoitlariga qisman yumshatuvchi ta'sir ko'rsatmoqda.*

Inflyatsion kutilmalarning pasayishi fonida real stavkalar ijobiy va yetarlicha qat'iy darajada shakllanmoqda. Iyun oyida aholi

depozitlari bo'yicha real stavkalar **8,3 foizni**, yuridik shaxslar depozitlari bo'yicha **4,9 foizni** tashkil etdi.

Shuningdek, aholi kreditlari bo'yicha real stavkalar **10,3 foizni** va **korporativ kreditlar** bo'yicha **10,8 foizni** tashkil etdi.

Bu sharoitlar jamg'arishga moyillikni qo'llab-quvvatlab, kreditga bo'lgan talabning haddan tashqari tezlashishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Natijada 2026-yil 1-iyul holatiga bank tizimidagi **jami depozitlar qoldig'i** o'tgan yilning mos davriga nisbatan **38 foizga** o'sib, **350 trln so'mni** tashkil etdi. Bunda **milliy valyutadagi depozitlar** hajmi oshishi **46 foizga** yetdi.

Shu bilan birga, depozitlar dollarlashuvining pasayish trendi milliy valyutada jamg'arishga moyillik kuchayib borayotganidan dalolat bermoqda.

Milliy valyutadagi jamg'armalarning o'sishi, o'z navbatida, pul-kredit transmissiyasini kuchaytirib, bank tizimining ichki resurs bazasini mustahkamlamoqda.

Kelgusi davrda Markaziy bank likvidlikni faol boshqarish orqali pul bozori stavkalarini asosiy stavkaga yaqin shakllantirishni davom ettiradi. Bu kreditlash o'sishining muvozanatli bo'lishi, jamg'arish jozibadorligini rag'batlantirish va monetar omillarning inflyatsiyaga ta'sirini cheklash uchun muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti yuqori investitsiyalar, tarif islohotlari, tashqi savdo hamda moliyaviy oqimlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq tarkibiy transformatsiya bosqichidan o'tmoqda.

Bunday sharoitda narxlar barqarorligi mazkur islohotlarning uzoq muddatli samarasini ta'minlaydigan asosiy tayanchdir.

Markaziy bank Hukumat bilan birgalikda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha choralarni muvofiqlashtirgan holda inflyatsiyani 5 foizlik maqsadli darajaga pasaytirishga qaratilgan siyosatni davom ettiradi.

Buning uchun hozirgi bosqichda pul-kredit sharoitlarining erishilgan qat'iyligini davom ettirish, aholi va biznes kutilmalarini yanada pasaytirish va ularni past darajada mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olib, o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank boshqaruvi asosiy stavkani o'zgarishsiz, **14 foiz** darajasida qoldirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Markaziy bank inflyatsiya dinamikasi, inflyatsion kutilmalar, yalpi talab va tashqi xatarlarni diqqat bilan kuzatib boradi. Kelgusi qarorlar inflyatsiyaning barqaror trendi, bazaviy inflyatsiya, inflyatsion kutilmalar, yalpi talab va tashqi xatarlar dinamikasiga asoslanadi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati inflyatsiyani o'rta muddatda **5 foizlik maqsadli darajagacha** pasaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholining xarid qobiliyatini saqlashga qaratilgan bo'lib qoladi.

*E'tiboringiz uchun rahmat!*